

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI FORTEPIANO CHALISHNI O'RGATISHNI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA TARIXI

Majidova Shaxnoza Kamaridinovna

Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining 1 – kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola musiqa san'at haqida bo'lib, musiqaning kelib chiqish tarixi, uning inson ongiga ta'siri va inson hayotida qanchalar ahamiyatga ega ekanligi hamda ichki qalb kechinmalarini musiqa orqali yoritilishi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano haqida allomalarning fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, mafkura, musiqashunoslik, estetika, risola, iste'dod, uslub, meros, tafakkur, ijrochilik, sharq musiqasi.

Annotation: The article deals with the art of music, the history of the origin of music, its influence on human consciousness and its importance in human life, as well as the illumination of inner feelings through music. The article also mentions the opinions fortepiano of scholars about music. A person who reads this article will have knowledge about art and music.

Keywords: Music, ideology, musicology, musicology, aesthetics, treatise, talent, style, heritage, thinking, performance, oriental music

Hozirgi globallashuv davrida yangi O'zbekistonni barpo etish jamiyatimizning yangilanish jarayonida yangicha dunyoqarash madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarni Vatanga sadoqat g'oyasini shakllantirish, milliy g'urur, ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analarni davom ettirish, boy tarixiy merosimizni o'rganish va uni o'sib kelayotgan yoshlar ongiga singdirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Zero, yoshlarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning ma'naviy-axloqiy qobiliyatini o'stirish, har tomonlama yetuk insonlar bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada musiqa san'ati alohida o'ringa ega bo'lgan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Musiqa san'atining cholg'u ijrochilik yo'nalishi esa o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ajdodlarimiz asrlar davomida cholg'u ijrochiligining qudratiga tahsinlar o'qiganlar, o'z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo'lganlar. Ezgu niyatlarini amalga oshirganlar. Endilikda musiqa cholg'ularining jozibali, husnkor ko'lami, uning mavqei yanada kengaydi, jamiyatda tutgan o'rni mustahkamlandi.

Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi fortepiano sinfida o'quvchi yakka o'qitish shaklida musiqa savodining boshlang'ich bosqichini ado etibgina qolmay, balki, ilk bor hamkorlikda ijro etish ko'nikmasini ham o'zlashtiradi. Binobarin, yakka va hamkorlikda ijro etish ko'nikmasi orqali yosh pianinochi jo'rlik san'ati bilan yaqindan tanishishi mumkin. Zero, aksariyat pianinochilar yakkaxon ijrochilik bilan birga, jo'rlik san'ati orqali ham o'z san'atini ifoda eta oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 103-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Biz bolalar musiqa va san'at maktabi fortepiano chalishni o'rgatishni pedagogik imkoniyatlari o'rganmoqchi bo'lsak avalam bor bu musiqa asbobining kelib chiqish tarixini chuqur o'rganishimiz va uni yoshlarga o'rgatishni pedagogik imkoniyatlarining alohida rejasini ishlab chiqishumz zarur.

Fortepiano cholg'usining paydo bo'lishi tarixi.1711-yilda Italiyaning Podue shahrida klavisin ustasi Bartolomeo Kristofori yangi musiqa asbobini yaratdi. Bu asbobda ijrochi kuyni xohlaganicha past yoki baland (piano yoki forte) ovozda chalish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu musiqa asbobining nomi ham shundan kelib chiqqan holda Pianoforte, keyinchalik Fortepiano nomi bilan atalgan.

Fortepiano (ital. forte — kuchli va piano — kuchsiz, sekin) — royal va pianinolarning umumiy nomi. Boshqa manbalarda yozilishicha Fortepiano 18-asr boshida B. Kristofori (Italiya), J. Marius (Fransiya) va K.G. Shryoter (Germaniya) tomonidan ixtiro qilingan. Keyinchalik Fortepiano mexanizmi va shakli I. A. Shteyn, I. A. Shtreyxer (Avstriya), A. Bekers (London), S. Erar (Parij) va boshqa ustalar tomonidan takomillashtirilgan. Tovush klavishlarini bosish orqali kigiz qoplangan yog'och bolg'achalar bilan torlarga urish natijasida hosil qilinadi. Klavesin va klavikorddan dinamikasi o'zgaruvchanligi (mas, kuchli peggedan asta sekin piano darajasiga o'tish imkoniyatlari) bilan farq qiladi (nomi shundan). Fortepiano uchun ilk asarlarni I. Gaydn, V. A. Motsart, L. Betxoven va boshqalar ijod qilgan. Fortepiano o'zining keng ijroviy texnik hamda ifodaviy imkoniyatlari tufayli Yevropa ko'p ovozli musiqasida asosiy yakkanavoz va jo'rnavoz soz sifatida keng o'rin olgan.

XIX asrda 2 ta asosiy fortepiano: 1-gorizontal royal (fransuzcha royal-qirol) 2-vertikal pianino (italyancha

pianino –kichkina pianino) mavjud bo'lgan. Royal har xil musiqa kechalar va konsertlar uchun mo'ljallangan musiqa asbobiga aylandi.

Fortepiano XVIII asrning oxirlarida kelib klavisin va klavikkordlarni deyarli butunlay amaliyotdan chiqardi. Fortepianoda xromatik tartibda tovush beruvchi to'qsondan ortiq tor bor. Torlar sadosi chapdan o'ngga qadar balandlashib, past va o'rta sado beruvchi torlar yo'g'on simlardan bo'lib, eng pastki sadolari bittadan, o'rta sadolarida ikkitadan, yuqori sadolari uchtdan bo'ladi. Kerakli klavishlar bosilishi bilan shunga xos bolg'achalar simga uriladi va sado beradi. Barmoqlar klavishdan ko'tarilishi bilan dempferlar tovush cho'zimini to'xtatadi. Pastdan chap pedalni oyoq bilan bosilsa sado kuchayadi. Fortepianoda yakka ovozlari ko'p ovoqli turli murakkab akkordlarni chalish imkoniyati bor. Hajmi yetti oktavani o'z ichiga oladi. Fortepianoda yakka, ansamblda va orkestrda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda Fortepianoning ikki turi ya'ni Pianino va Fortepiano keng tarqalgan. Pianino bu Fortepiano so'zining qisqartirilgani. Fortepianodan kichikroq bo'ladi.

Fortepiano (pianino) – monoxord sozlanuvchi ko'p torli va ko'p tovushli klavishli cholg'u. Ushbu shaxmat tuzilishida matematik tizimlidir. Ergologik jihatdan yog'och korpusli torlari esa po'lat va mis uyumidan yasaladi. Shu bilan bir qatorda torlari tuzulishi mayin va yo'g'on tor simlardan iborat bo'lib, klavishlari odatda yog'ochli va Fil suyagidan yasali kelingan bo'lib, hozirgilari esa plastmassa (elastik) sun'iy uyumdan yasaladi.

Torsimlarining tuzulishi va diapozoni:

- a) Fortepiano - diapozoni LYA- fa-lya subkontr oktavadan 5- oktava DO- gacha;
- b) Royal- diapozoni FA- subkontr oktavadan 5- oktava FA-SOL- gacha. Ushbu cholg'ular xromatik sozlanuvchidir.

Jahon cholg'usi "Fortepiano"- ning shaydosi Italiyalik Gersok Toskanskiyning katta o'g'li Ferdinando De Medichining uyida, katta tantanalar, kechalar va bazmlar Ferdinando tomonidan uyushtirilib kelingan. Italiyaning eng boy aristokrati hamma vaqt Florensiyaga qiziqib borgan. Bu yerda mehmonlarni doimo qiziqarli va antiqa yangiliklar kutib turgan. Goh paytlari yangi janr, pyessa va boshqa ijrolar ham mehmonlarni maftun etgan.

Gastrollarda esa eng yirik virtuoz ijrochilar qatnab, ular bir- birovi bilan ajoyib ijrolarida baxslashib turganlar. Ferdinantoning o'zi ham klavesin ijrochisi sifatida qatnab turgan. Ferdinando qayerda yashamasin hamma vaqt yangi va aniq sozga ega cholg'ularni kolleksiyasini yig'ib turgan. Uning klavesinlar kolleksiyasi Italiyadan tashqari davlatlarga ham ma'lum bo'lgan. Bu ushbu kolleksiyalarni avaylab asrovchisi va qo'riqchisi klavesin usta- sozgari Bartolomeo Kristofori bo'lgan. U Butun umri davomida yangicha klavesinlarni konstruksiyasi va rekonstruksiyasi bilan shug'ullanib kelganidek, kunlarning birida Ferdinantoning uyida yangicha antiqa cholg'u bilan uy egasini hayratga solmoqchi bo'ladi. O'sha paytda mehmonlar ushbu antiqa cholg'u yonida ja'm bo'lishadi, ammo cholg'uning usti matoli niqob bilan yopilgan bo'lgan. Biroq mehmonlar ushbu antiqa cholg'uni ko'rish uchun zavq bilan diqqat qaratishadi. Mehmonlar Kristoforiga qarab bu tinmas o'zini yangicha "g r a v e c h i m b a l o k o l p i a n o e f o r t e" - cholg'usini yangi turini yana kashf etibdi, - deyishadi. Yana- "aytishlaricha u allaqanday bolg'achalarni kashf etibdi va unga teri- charmni tortib, chimbalo ni tilchalari o'rniga almashtirib qo'yibdi, o' ajabo, deya ayrim mehmonlar ma'qullashadi."

Xullas, fortepianoning yuzidagi (chexol)-niqobi olinadi. Hali konsert boshlanmasdan zaldagi mehmonlar qiziqqanlaridan jim-jit bo'lishib, bir- birovlariga qarab pichir- pichir tovushlar eshitiladi: - "qiziqarli- qiziqarli, lekin oddiy klavesinga odatlanganimizdek, asliy nusxasi yaxshi ediyov",- deyishadi.

- Mana qaranglar bu oddiy o'zimizni klavesin, uning tuzilishiga qaranglar...

- Yo'q, - deyishadi mehmonlar.- bu shunchaki navbatdagi eksperimentdir, boshqasi emas. Qanchalik usta-sozgarlar ushbu klavesin cholg'usidan ham yaxshiroq, takomillashgan cholg'ularni ixtiro qilib kelganlar, ammo mehnatlari zoye ketgan. Unga hecham hojat yo'q, shubxasiz klavesindan xech qaysi cholg'u o'tolmasligini ta'kidlaydilar. Ko'rsatma tugaganidan so'ng jamoa syurprizni unutib, yondagi zalga qarab yo'l olishadi. U yerda ularni yana bir ajoyibot kutmoqda edi. Xullas, shaxzoda Ferdinantoning mehmonlari ushbu yangilikni tan olmaganlaridan so'ng, Kristofori o'zi yaratgan antiqasini ustini yana niqob bilan yopib qo'yadi. Lekin klavishli cholg'uning haqiqatdan ham takomillashgan yangi turini hech kim tushunmaydi. Ammo, Kristofori o'ziga ishoch bilan shuni tushunadiki, "bolg'achali chembalo" –ni katta kelajak kutmoqda, bunga faqat sabr-toqat va vaqt kerakligini anglab oladi.

1709- yilda, Bartolomeo Kristofori o'z xo'jayinining mehmonlariga bolg'achali fortepianoni namoyish etadi. U o'sha davrda ushbu cholg'uning yaratuvchisi bo'lgan edi. XVIII – asrda "bolg'achali - klavesinni"- ni yaratishda qayg'urib, tadqiqotlar olib borganlar birinchilar qatorida bo'lsalar ham, ammo yagona emas edilar. 1716 yilda Fransuz Marius tomonidan ushbu cholg'uning modeli konstruksiyadan qayta o'tadi. U ham bolg'achali fortepiano yaratishga kirishadi. Bir yil o'tar – o'tmas, nemis musiqachisi Shreter tomonidan ham Kristofori va Mariusga nisbat farqli - o'laroq bolg'achali fortepiano yaratiladi.

Musiqachilarni doimiy ravishda qiziqtirib borgan cholg'uni yanada takomillashishga erishadilar. Ammo, klavesin o'z o'rnini bermoqchi bo'lmaydi, sababi ushbu cholg'uning mexanikasi abadiy emas edi, uning tovushi ham quvvat bosimi orqali almashinib turishi bilan, tovush chiqarilishi juda tez va quruq edi.

Yangi cholg'u haqida berilgan birinchi taqrizlar, ushbu cholg'u sozgarlarini quvontira olmaydi. " XVIII – asrning mashhur musiqachilaridan biri Fortepiano cholg'usi Klavesin cholg'usiga nisbat yaxshi tovushga ega

emas. Bu kamerli cholg'u baland tovushli ijroga xos emasligini aytadi". Yana birida esa, "Fransuz tinglovchisi bunday degan, - baslari qattiq, karsimon va munglihamdir, biz Fransuzlarning qulog'imizga judayam aksilagandek tuyuladi", - deyilgan.

O'z davrining shahanshoxi buyuk nemis kompozitori Iogan Sebastyan Bax, ilk marotaba fortepianoning turlari bilan tanishib shu zahot kamchiliklari haqida o'z fikrini bildirib o'tgan. U "yuqori registrarga tovushining past va bo'shligini hamda ularda ijro etish qiyin ekanligini aytadi." Haqiqatda nam, klavesinning o'zga xos beriluvchanligi bilan taqqoslaganda fortepianoning klavishlariga ijro etish uchun katta quvvat sarf qilishga to'g'ri kelgan. Shu tariqa musiqachi va musiqashunoslarning izohlarida fortepianoda qanchalik kamchiliklar topilib tuzatilmasin, baribir klavesinning muloyim yengil va yuguruvchan chaqqon tovushiga bas kelmaydi degan xulosaga kelishadi.

Musiqachilar qisqa vaqt ichida endigina tug'ilgan "bolg'achali fortepiano" yoki goh "pianoforte"-deb tilga olingan cholg'uga yakuniy tugal va jiddiy xulosaga kelib "ushbu cholg'u hech qachon klavesinni buyuklikda keng erishgan imkoniyatlariga erisha olmaydi"- deyishadi. Lekin vaqt boshqacha xulosalashga olib keldi. Sebastyan Baxga fortepiano uchun asarlar yaratish xojati bo'lmagan. Ammo, uning kichik o'g'li – Iogan Kristian Bax, mashhur kompozitor va ajoyib klavir ijrochisi sifatida ushbu cholg'uni darxol baholaydi. Va u jamoa oldida o'zining birinchi yakka tartibli -solo konsertini fortepianoda namoyish etadi. Ko'p vaqt o'tmay uning "Fortepiano uchun" taqdim etilgan sonatalar darsligi paydo bo'ladi.

Fortepiano cholg'usining takomillashishidagi islohotlar. XVIII – asrning 60-70- yillarida vaqt taqozosi bilan Yevropaning ko'plab yetakchi va taniqli musiqiy cholg'ular yasovchi usta- sozgarlari tomonidan, fortepiano cholg'usini qaytadan takomillashtirish va kamchiliklarini tuzatib, butun rekonstruktiv - ergologiyasi bilan shug'llanishda islohotlar boshlab yuboriladi va hatto yillar o'tishi bilan avjiga chiqadi. Ushbu cholg'u haqida fikrlar ham o'zgarib boradi. Endi tanqidchilikka klavesin cholg'usi ro'yobga chiqadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, "qo'shiqchilik bandlariga uning karsimon va doimiylikdagi o'tkir tovushi", to'g'ri kelmaydi. Bu degan so'z, klavesin ijrosida sabrlik bilan chidab kelganligi ma'lum bo'ladi. Oradan 20- (ikki o'n yillik o'tgach) yil o'tgandan so'ng, "Buyuk musiqiy to'ntarishning" zamondoshlari guvohlik beradilarkim, "Klavesin faqat orkestr ijrochiligi uchun saqlanib kelingan edi, ammo, qiziqarlisi shundaki, ular yana nima uchun ushbu cholg'u qo'llanib kelishmoqda: tovushi juda ham o'tkir va zuddan bo'lsa, nafratlanuvchan tuyilsa". Shu tariqa, orkestr cholg'usiga klavesin keraksiz ekanligi asoslanadi.

Mamlakatimiz musiqa ta'limi tizimining afzalliklari, xususan, o'zbek fortepiano pedagogikasining yutuqlari hammaga ma'lum va shubhasizdir. Ammo bugungi kunda pianino ijrochiligining ahvoli shuni ko'rsatadiki, hali ham bir qancha hal etilmagan muammolar bor, ularni respublika musiqa jamoatchiligining birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshirishni taqazo etadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim va tarbiya, zamon talablariga javob beradigan va amaliy faoliyatni boshlashdanoq, uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan sifatlarga ega bo'lgan iqtidorli bolalarni yetishtirishi lozim. Hozirgi kunda bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim jarayoni o'z vazifasi va jadalligiga ko'ra ancha murakkablashdi. Shuning uchun uning yo'nalishi, mazmuni va usuliyati masalalarini ilmiy asosda hal qilmay turib, jamiyatning doimiy ortib borayotgan talablariga mos iqtidorli bolalarni tayyorlash samaradorligini ta'minlash mumkin emas.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa sohasida bo'lajak iqtidorli mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o'rganish talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to'g'ri belgilashning eng muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Mirziyoev. Sh. 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

Azimov N. Fortepiano darsligi. O'qituvchi.- T.: 1998 yil

Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.

Djamalova. D. "Fortepiano" darsligi.-T. "Musiq" 2018 y.

Zakirova Sh. O'zbekiston kompozitorlarining fortepiano uchun asarlar. - T., «O'zbekiston». 2010.

Ражабов, Т. (2023). O'zbek bolalar musiqiy o'yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.

Muhammadjanova Z. Fortepiano chalishni o'rgatish uslubiyoti.-

Toshkent, 2006 yil

Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.

Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.

Tўxtasin, P. I. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ КЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special issue), 64-71.

Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences* ISSN, 2795(546X),